“TASDIQLAYMAN”

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o‘quv ishlari bo‘yicha prorektori

_____ N.A.Abdullayev

2025-yil “22” oktabr

“TASDIQLAYMAN”

“Sanoat energetika guruhi Enera” MCHJ xodimlar va tashkiliy rivojlantirish bo‘yicha bosh direktor o‘rinbosari

_____ X.N.Xodjimetov

2025-yil “22” oktabr

O‘zaro hamkorlik aloqalari bo‘yicha
SHARTNOMA №73

Toshkent shahri

2025-yil “22” oktyabr

Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847-son Farmoni hamda boshqa tegishli me’yoriy-huquqiy xujjatlardan kelib chiqib *Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti* (keyingi o‘rinlarda Universitet) nomidan (bir tomondan) universitet Ustavi asosida ish yurituvchi prorektor *N.A.Abdullayev* va “Sanoat energetika guruhi Enera” MCHJ (keyingi o‘rinlarda ENERA) nomidan (ikkinchi tomondan) tashkilot Ishonchnomasi (2 oktyabr 2025, №2) asosida ish yurituvchi bosh direktor o‘rinbosari *X.N.Xodjimetov* o‘rtasida tuzildi.

1. Umumiy qoidalar

1.1 O‘zaro hamkorlik ilmiy tadqiqot faoliyati samaradorligi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash sifatini oshirish hamda universitet bitiruvchilarining malakaviy amaliyotini o‘tkazish va ularni kelgusida ishga joylashishiga ko‘maklashish shuningdek, tomonlar faoliyatining boshqa sohalari bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshiriladi:

- Tegishli fan sohalari bo‘yicha ilmiy loyihalar ishlab chiqish hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish;
- ENERA va Universitet tadqiqotchilari amalga oshiradigan ilmiy-tadqiqotlarini amaliyotga joriylashtirish;
- Universitetning mutaxassislar tayyorlash sifatini bevosita ENERA mutaxassislari tomonidan tizimli o‘rganib borilishini tashkil etish maqsadida talabalar amaliyoti va stajirovkasini tashkil qilish;
- ENERAning malakali mutaxassislarini tanlov asosida tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha pedagogik faoliyatga jalb qilish, shuningdek, ENERA mutaxassislari tomonidan Universitet bitiruvchilarini seleksiya qilish orqali ularni ENERAga ishga qabul qilish;
- Tomonlarning faoliyat doirasidagi muammolarini o‘rganish hamda ularning yechimi bo‘yicha ilmiy va amaliy takliflar, shuningdek, istiqbolli rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqish;
- Ilm-fanning muhim masalalari yuzasidan respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy hamda ilmiy-nazariy anjumanlar o‘tkazish.

1.2. O‘zaro hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan moddiy va moliyaviy masalalar ushbu shartnoma asosida tuziladigan qo‘shimcha shartnomalar orqali amalga oshiriladi.

1.3. Mazkur shartnoma o‘zaro hamkorlik shartnomasi hisoblanib taraflar uchun qonunchilik bilan tartibga solinadigan huquq va majburiyatlar keltirib chiqarmaydi.

1.4. Mazkur shartnomaning tuzilishi va undagi shartlarning bajarilishi tomonlar o‘rtasida tuziladigan o‘zaro manfaatli boshqa shartnomalarga zid bo‘lmasligi shart.

2. O‘zaro hamkorlik bo‘yicha Universitetning vazifalari

2.1 ENERA tadqiqotchilarining Universitetda tadqiqot olib borishlari uchun sharoit yaratib berish.

2.2 ENERA mutaxassislarini Universitet talabalarining kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalariga rahbarlik qilishga jalb etish.

2.3 Universitet bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishlari uchun ENERA mutaxassislarini jalb qilish.

2.4 Universitetning ENERA faoliyatiga mos bo‘lgan yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talaba va magistrantlarini ENERAda amaliyot o‘tash uchun tizimli ravishda yuborish.

2.5 ENERA mutaxassislari takliflari asosida ilmiy-amaliy rivojlanish yo‘nalishlaridagi mavjud muammolarni hal qilishga oid bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari mavzular bazasini shakllantirish.

2.6 Qo‘shimcha shartnoma asosida ENERA mutaxassislariga tegishli yo‘nalishlar bo‘yicha dars soati ajratish.

2.7 **Umumiy qoidalar**dan kelib chiqqan holda boshqa vazifalarni bajarish.

3. O‘zaro hamkorlik bo‘yicha ENERAning vazifalari

3.1 ENERA faoliyatiga mos ta’lim yo‘nalishlarida tahsil olayotgan talabalarni ENERAda amaliyot o‘tashlariga hamda Universitet bitiruvchilarini ishga joylashtirishga ko‘maklashish.

3.2 Zamon talablaridan kelib chiqqan holda Universitetga bitiruv malakaviy ishi va magistrlik dissertatsiyalari mavzularini shakllantirish uchun takliflar berish.

3.3 ENERA mutaxassislari bilan Universitet professor-o‘qituvchilari va talabalari ishtirokida tegishli faoliyat sohasiga oid yangiliklar, ularni rivojlantirish istiqbollari, ta’lim mazmunini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish va kelgusidagi vazifalarni belgilab olish yuzasidan uchrashuvlar o‘tkazib borish.

3.4 Universitet qoshida shakllantiriladigan oliy ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi innovatsion korporativ guruhlarga ENERAning yetuk mutaxassislarini biriktirish.

3.5 Universitet tadqiqotchilarining ENERAda tadqiqot olib borishlari uchun sharoit yaratib berish.

3.6 ENERA mutaxassislarining Universitet bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyalarida ishtirok etishini ta’minlash.

3.7 Amaliyot va stajirovkaga yuborilgan talabalarga mas'ul xodim biriktirish, shuningdek, amaliyotchilar uchun ish joyi va amaliyot davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar ajratish.

3.8 **Umumiy qoidalar**dan kelib chiqqan holda boshqa vazifalarni bajarish.

4. Shartnomaning kuchga kirishi

4.1. Shartnoma tomonlar imzo chekkan kundan boshlab kuchga kiradi va 5 yil davomida amal qiladi.

4.2 Shartnoma tugashiga bir oy qolganda, tomonlar yoki ulardan biri yozma ravishda uni bekor qilmasa, u yana besh yil muddatga uzaytirilgan hisoblanadi.

4.3. Shartnoma ikki nusxada tuziladi va ular bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti	**"Sanoat energetika guruhi Enera" MCHJ**
100060, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Amir Temur ko'chasi 20-uy	100161, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 47-uy
Tel.: +998 (71) 233-34-24	Tel.: +998 (78) 150-00-57